

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR SHAXSIY XISLATLARINING KASBIY TAYYORGARLIK JARAYONIDA SHAKILLANISHI, KASBGA XOS XISLATLARINING AHAMIYATI

To‘raxonova Mohinur Abdunazar qizi

Termiz davlat pedagogika instituti psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

turaxonova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilar shaxsiy xislatlarining kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakillanishi, kasbga xos xislatlarining ahamiyati

pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili o‘qituvchining shaxsiy sifatlari ekanligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, shaxsiy tuzilma, pedagogik hamkorlik, xulq-atvor, ongli moslashish, bilim, tajriba, hayotiy va kasbiy maqsad, kasb tushunchasi, oliyjanoblighi, aql-farosati

Abstract: In the article, the formation of personal qualities of future teachers in the process of professional training, the importance of professional qualities

it is said that the primary principle of pedagogical cooperation is the teacher’s personal qualities.

Key words: teacher’s personal qualities, personal structure, pedagogical cooperation, behavior, conscious adaptation, knowledge, experience, life and professional goal, concept of profession, nobility, intelligence

Kasb tushunchasi - bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o‘tkazuvchi va unga yashash uchun manba bo‘lib xizmat qiluvchi mashg‘ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug‘ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma’lum aloqalar va axloq normalari o‘rnatiladi.¹ E.A.Klimov tadqiqotlarida “Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo‘lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab qiladi”, deya ta’kidlaydi. Mavjud ta’riflarni umumlashtirib quyidagicha xulosa qilish mumkin: “Kasb mehnat faoliyatining asosiy shakli bo‘lib, uni bajarish uchun inson, albatta, ma’lum bilim, malaka va ko‘nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak”²

¹ "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5 www.openscience.uz 1067

² Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – RostovnaDonu:Finiks, 1996.S-12-14

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari Darhaqiqat, kasbiy moslashuv murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma va malaka, kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi ham asosiy mezonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Pedagog olim V.A.Slastenin bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda:

- ✓ mutaxassis ishlashi lozim bo'lgan aniq vaziyatlarni;
- ✓ uning mehnat vazifalarini;
- ✓ talab etiladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni inobatga olish zarurligini ta'kidlab o'tadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi:

- ✓ 1-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik
- ✓ 2-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish
- ✓ 3-bosqich. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va moslashtirish katta ahamiyatga ega. Chunki pedagoglarning mashaqqatli mehnatlari orqali jamiyat rivojlanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod komil inson bo'lib yetishadi. Shuning uchun har bir pedagog o'z kasbiga sidqidildan yondashish kerak. Kasbiga hurmat, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo'shish har bir insonning muqaddas burchi sanaladi. Ma'lumki Pedagogik faoliyat — kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir. Jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi o'qituvchi shaxsi va uning kasbi bilan bog'liq xislatlarga qaratilgan. O'qituvchining eng muhim shaxsiy xislatlari quyidagilardir:

- ✓ ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etish;
- ✓ oliyjanoblighi, aql-farosati, ma'naviy rok va ma'rifat bo'yicha yuksak maqsadlarga mos kelishi, bunday xislatlarni jamiyat xohishi bo'yicha bolalarga singdirib berishi;
- ✓ o'zini qo'lga ola bilishi, sabr-toqatli, matonatligidir.

Bugungi kunda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga qo'yadigan asosiy talablari quyidagilardir:

- shaxsni ma'naviy-ma'rifiy tomondan tarbiyalashning milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarining mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o'z vatani, tabiatiga va oilasiga bo'lgan muhabbati;
- keng bilim saviyasiga ega bo'lish, barcha sohalarga doir bilimlar bilan qurollanishi;

- yosh pedagogik psixologik, ijtimoiy psixologiya va pedagogika yosh fiziologiyasi hamda maktab gigienasidan chuqur bilimlarga ega bo'lishi;
- o'zi dars beradigan fan bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, o'z kasbi sohasida jahon fanida erishilgan yutuq va kamchiliklardan xabardor bo'lishi;
- ta'lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o'z ishiga iqtisodiy yondashishi;
- bolalarni bilishi, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, nutq; ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;
- o'qituvchining o'z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

Psixologlar shu bilan bir qatorda O'zbek psixolog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda zamonaviy o'qituvchilar uchun zarur xislatlarni aniqlab olish imkoniyatini beradi. Rus psixologlaridan N.V. Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, O'zbek psixologlaridan R.Z.Gaynutdinov, M.G.Davletshin, S.Jalilova, Ajabborov, M.Qoplanova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilik kasbining turli jihatlarini atroflicha keng batafsil ko'rsatib berish imkoniyatini yaratadi. Bevosita o'qituvchi shaxsiga taalluqli bo'lgan professiogramмага asosiy e'tibor qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat ta'lim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Zero, psixologik - pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kasbiy o'ziga xoslik muammosiga bag'ishlangan yetarli adabiyotlar mavjud, uning tarkibiy qismlarining yetarlicha aniq tavsifi berilgan. Bu kelajakdagi kasbni tanlashda harakat qilish, kasbiy rivojlanish strategiyasini tanlash to'g'risida qaror qabul qilish va shaxsiy kasbiy salohiyatni ro'yobga chiqarishga yordam beradigan xususiyatlar to'plamidir. O'qituvchilarning uzluksiz pedagogik ta'lim jarayonida kasbga dastlabki tayyorgarlik birinchi fundamental bosqich sifatida qaralishi kerak. Ta'lim sohasidagi davlat siyosati, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, o'qitish, pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy izlanishlar va ilmiy kashfiyotlar, ijtimoiy o'zgarishlar bevosita o'qituvchi kasbiy o'zligi faoliyatining faolligi bilan bog'liqdir. Pedagogik mehnatning tabiati doimiy harakatni, ijodiy izlanishni talab qiladi. O'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashining ahamiyati, ayniqsa, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning barcha sohalarida misli ko'rilmagan jadallashuv kuzatilayotgan, bu esa kasbiy bilim va ko'nikmalarning nisbiy barqarorligini yo'qotishiga, ularning tez sur'atlarda rivojlanishiga olib keladigan hozirgi vaqtda o'sib bormoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Ta’lim va tarbiya jarayoni ta’sirchanligining yanada yuksak bo‘lishi o‘qituvchining ilmiy salohiyatiga, yoshlar oldidagi obro‘sigacha, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste’dodiga, ta’lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o‘quvchi yoki talabalar bilan o‘rnatilgan do‘stona munosabatiga bog‘liqdir. Raqobatbardosh iqtisodiy - ijtimoiy munosabatlar sharoitida ta’lim tizimida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. "Bo‘lajak pedagoglarda kreativ o‘z-o‘zini boshqarishni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Musinova Ruxshona Yunusovna Toshkent:2019
2. Kizi, M. T. A. (2022). Solutions to the problem in the development of intellectual property of modern educational technologies.
3. Narbasheva, M. A. (2021). The importance of pedagogical and psychological literacy of parents in preparing children for school education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(1), 728-732.
4. Нарбашева, М. А. (2021). Оилавий муносабатларнинг таълим-тарбия самарадорлигига таъсири. Таълим ва инновацион тадқиқотлар. (maxsus son) 165-169
5. То‘рахонова, М. (2023). ВО ‘LAJAK O ‘QITUVCHILARNING KASBIY O ‘ZLIGINI ANGLASHINING PSIXOLOGIK OMILLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 54-59.
6. Бозорова, М., & Турахонова, М. (2021). РОЛЬ ЭТНОПЕДАГОГИКИ В ПРОЦЕССЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ. Энигма, (32), 82-86.